


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>U.I.Obidjanov</b>	
Laboratoriya mashg'ulotlarining biologiya fanini o'zlashtirishga ta'siri.....	96
<b>M.A.Abduxalilova</b>	
O'quvchilarida ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish tamoyillarini shakllantirish .....	100
<b>M.A.Mamasaidova, M.X.Akbaraliyeva</b>	
Boshlang'ich ta'lrim o'quvchilariga ko'paytirish amalini o'rgatishning interfaol usullari .....	107
<b>G.S.Qosimova</b>	
Tibbiy ta'limga matematik modellashtirish orqali organizmning funksional holatlari va himoya-moslashuv jarayonlarini o'qitish usullari.....	112
<b>S.R.Toshboyeva, L.A.Yusupova</b>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida kombinatorika elementlarini o'qitishda qo'llaniladigan asosiy qoidalar .....	117
<b>A.A.Мирзалиев</b>	
Пути повышения эффективности системы морально-психологической подготовки и теоретическая модель ее организации.....	121
<b>A.T.Akbarov</b>	
Basketbolning jismoniy rivojlanish va salomatlikni mustahkamlashdagi muhim roli .....	127
<b>S.M.Sidiqov</b>	
Yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda harakatli o'yinlardan foydalanish .....	132
<b>Z.N.Usmonov</b>	
Jismoniy madaniyat ta'limi va tarbiysi jarayonini rejalashtirishga qo'yiladigan talablar.....	137
<b>S.T.Xakimov, N.B.Komilova</b>	
Umumiylar ta'lim makkablarida jismoniy tarbiya fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish (basketbol sport turi misolida) .....	142
<b>X.T.Xasanov</b>	
Kasb-hunar makkablar o'quvchilarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi xususiyatlari .....	147
<b>G.K.Yakubova</b>	
Turli yoshdagagi odamlarning har hil sharoit va hududlarda nafas olishini tahlil qilish.....	153
<b>T.T.Yusupov</b>	
Maktabgacha yoshdagagi bolalar uchun gimnastika mashqlari majmuuni tuzish va uni o'tkazishga qo'yiladigan talablar .....	158
<b>Y.J.Mirzaaxmedova</b>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixi bo'yicha bilimlarni shakllantirishning pedagogik jihatlari .....	164
<b>A.M.Maxmutaliyev</b>	
Umumta'lim makkabining boshlang'ich jismoniy madaniyat jamoasi faoliyatida innovasiyalar.....	168
<b>D.E.Yuldasheva</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarida ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning shaxsga yo'naltirilgan yondashuv texnologiyasi .....	173
<b>Y.J.Mirzaaxmedova</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishning pedagogik imoniylatlari .....	178
<b>D.E.Yuldasheva</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarida ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning shaxsga yo'naltirilgan yondashuv modeli .....	182
<b>L.E.Bobomurodova</b>	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining ma'naviy va kasbiy sifatlariga qo'yilgan talablar .....	189
<b>G.O'.Yuldasheva</b>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik refleksiyalash qobiliyatini rivojlantirish: komponentlar va ularning ahamiyati.....	194
<b>E.K.Muxtarov</b>	
Kvant mexanikasi fanidan amaliy darslarda masalalarni yechishning metodik jihatlari .....	194



УО'К: 796.2

**KASB-HUNAR MAKtablARI O'QUVCHILARINING KASBIY-AMALIY JISMONIY  
TAYYORGARLIGI XUSUSIYATLARI**

**ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ  
УЧАЩИХСЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ УЧИЛИЩ**

**FEATURES OF PROFESSIONAL AND PRACTICAL PHYSICAL TRAINING OF STUDENTS OF  
VOCATIONAL SCHOOLS**

**Xasanov Axadjon Tursinovich** 

Farg'ona davlat universiteti jismoniy tarbiya nazariyasi kafedrasи dotsenti, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya**

*Maqolada kasb-hunar maktablarida olib boriladigan kasbiy – amaliy jismoniy tayyorgarlikni mehnat sohasi va harbiy faoliyat bilan bog'langan maxsuslashgan amaliy xususiyatga egali bayon qilingan va bu bo'yicha jiddiy ravishda professiogrammani ilmiy ishlab chiqish zarurligi isbotlangan.*

**Аннотация**

*В статье раскрывается специализированный практический характер профессионально-практической физической подготовки, проводимой в профессиональных учебных заведениях, связанной с трудовой и воинской деятельностью, и обосновывается необходимость серьезной научной разработки профессиональной учебной программы в этой связи.*

**Abstract**

*The article describes the specialized practical nature of professional and practical physical training conducted in vocational schools, associated with the field of labor and military activity, and proves the need for serious scientific development of a professional curriculum in this regard.*

**Kalit so'zlar:** jismoniy sifatlar, mashg'ulot, davlat standarti, pedagogik testlash, vosita, metod, mashq, kasbiy faoliyat.

**Ключевые слова:** физические качества, подготовка, государственный стандарт, педагогическое тестирование, средство, метод, упражнение, профессиональная деятельность.

**Key words:** physical qualities, training, state standard, pedagogical testing, tool, method, exercise, professional activity.

**KIRISH**

Oxirgi yillarda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, aholi salomatligini yaxshilash, o'quvchi yoshlarni jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanishga jalb qilish masalasi eng ustivor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu masalalar Prezidentimiz tomonidan ham 2025-yil 13-fevraldagи videselektor yig'ilishida aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda nafaqat sport, balki to'g'ri ovqatlanish ham dolzarb ahamiyatga ega ekani qayd etildi.

O'tkazilgan o'rganishlarga ko'ra, aholimizning 44 foizi jismoniy faol emasligi, 36 foizi to'g'ri ovqatlanish qoidalariiga amal qilmasligi aniqlangan. O'tgan yili ommaviy sport musobaqalarida yoshlar qamrovi 10 millionga yetdi. Misol uchun, "Besh tashabbus olimpiadasi"ning o'tgan yilgi mavsumida tuman bosqichida g'olib bo'lgan 150 ming yoshlarning atigi 15 foizi sport maktablariga tanlab olingan.

Endilikda har haftada mahallalarda ommaviy jismoniy faollik tadbirlari o'tkazib borilishi va ularga nogironligi bo'lgan shaxslar keng jalb etilishi alohida ta'kidlandi. Shu bois, "Sog'lom inson – sog'lom millat" umummilliy harakati boshlanadi.

Mutasaddilarga sog'lom ovqatlanish va jismoniy faoliik targ'iboti bilan har bir oilani qamrab olish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Bu fikrlar uzlusiz ta'limga barcha bo'g'inlarida ham jismoniy tarbiya va sport ishlarini yanada jonlantirish zaruratini keltirib chiqaradi. Ma'lumki, o'quvchi yoshlarning ko'pchiligi maktab ta'limga tugatgandan keyin jismoniy tarbiyani kasb-hunar maktablarida davom ettiradilar. Ma'lumki, bu o'quv yurtlarida jismoniy madaniyat mehnat sohasi va harbiy faoliyat bilan bog'langan maxsuslashgan amaliy xususiyatga ega bo'ladi. Bu esa ushbu maktablarda ham o'quvchilar jismoniy tarbiyasiga ilmiy yondashuvni talab qiladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik jismoniy tayyorgarlikning kasb talablariga mos holda bo'lishini, jismoniy faoliyatning muhim darajada xilma-xil tuzilishini namoyon qiladi va o'zida tanlangan kasbiy faoliyatga maxsus jismoniy tayyorgarlikni ta'minlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni ifodalaydi.

Ilmiy va ilmiy – uslubiy adabiyotlarni tahlili ko'rsatdiki, S.A.Polyevskiy, L.P.Matveyev, V.I.Izaak ishlarida e'tirof etiladiki, ta'lim muassasalarida kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik jismoniy tarbiya yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

G.A.Degtyarenko, T.S.Razikov, R.A.Xamrakulov, J.A.Akramov, O.X.Abdalimov, S.A.Gayduk, A.V.Naydin, N.SH.Fazleyev, A.G.Shabanov, B.V.Shilokin, S.O.Sekunov tomonidan chaqiriqqacha yoshlarni jismoniy tarbiyalash metodikasi bo'yicha tadqiqot ishlari bajarilgan.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Kasbiy – amaliy jismoniy tayyorgarlik (KAJT) bevosita va tarkibiy kadrlarning kelgusidagi faoliyati hamda ularni salomatligini mustahkamlash vazifasi bilan bog'liq. KAJTning asosiy vazifasi – insoning jismoniy va psixik sifatlarini optimal darajada yo'naltirib rivojlantirish va saqlab qolish, unga aniq kasbiy faoliyat talablarini oshirish hamda tashqi muhit sharoitlariga organizmning funksional barqarorligini ta'minlashdir [1,2,3].

Ma'lumki, barcha bitiruvchilar o'qishni tugatgandan so'ng Qurolli Kuchlarda xizmat qilish uchun chaqiriladi.

Kasb-hunar maktablari o'quvchilari jismoniy tarbiyasida KAJT dasturning mustaqil qismi sifatida kiritilgan.

Kasb-hunar maktablari uchun kasbiy – amaliy jismoniy tayyorgarlik:

- kelgusidagi kasb xususiyatlarini hisobga olib jismoniy sifatlar, harakat malakalari va ko'nikmalarini shakkantirish maqsadida kasbiy-amaliy xarakterdagi maxsus mashqlarni kiritish yo'li bilan majburiy mashg'ulotlardagi umumiy jismoniy tayyorgarlik jarayonida;

- armiyada xizmat qilishga tayyorgarlik uchun o'zining mazmuni bo'yicha KAJTga mos keluvchi maxsus tashkillangan fakultativ mashg'ulotlarda;

- ertalabki gimnastikani bajarish jarayonida;

- yakkakurash turlari bo'yicha darsdan tashqari seksiya mashg'ulotlarida amalga oshiriladi.

Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha davlat standartlarining kasbiy-amaliy yo'nalishi bo'limida kelgusi faoliyatga maxsuslashtirilgan tayyorgarlikka yo'naltirilgan vosita va metodlar ko'zda tutilgan.

Umumi jismoniy tayyorgarlik vositalari yordamida jismoniy sifatlar bilan bir qatorda quyidagilar rivojlantiriladi:

turli balandliklarda, qisqa tayanchda, keng va chuqur to'siqlar orqali chuqurlikka sakrashlardagi harakatlanishlarda, turishlar, umbaloq oshishlar, tayanib sakrashlar, yakkakurash turlarini o'z ichiga olgan gimnastika snaryadlaridagi mashqlarda qat'iylik, botirlilik, emotsional turg'unlik;

sport o'yinlari, yakkakurashlar, joyni ko'rsatuvchi belgilar orqali yugurishlar va boshqalar jarayonida tashabbuskorlik va zukkolik;

katta jismoniy yuklamalar bilan mashqlarni ko'p marta bajarish natijasida, musobaqalar jarayonida, sezilarli psixik kuchlanish va charchash sharoitlaridagi mashqlarni bajarishda bardoshlilik, chidamlilik;

granata uloqtirish, tebranib turgan tayanch bo'yicha harakatlanish, charchash holatida to'siqlardan oshib o'tish, yugurish, kross, "marsh – brosok" va boshqalar sharoitida aniq harakat qilish qobiliyati;

turli usullar bilan tez harakat qilish, davomli suzish natijasida chegaralangan harakatlanish sharoitlarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish qobiliyati;

## PEDAGOGIKA

yuqori balandlikka tirmashib chiqish, suvga sakrash, aylanishlar, engashib yurish va boshqalar vositasi bilan chegaralangan maydonda tayanch vaqtida yuqori balandlikda ishonchli harakat qilish qobiliyati;

ko'krakdan nafas olish, sakrashlar, qisqa masofalarga yugurishlarning qo'shilishida uzoq kuchlanishlar bilan bog'liq mashqlarni bajarish orqali ortiqcha yuklamalarga barqarorlik;

gimnastika snaryadlarida, batutda akrobatik elementlarni bajarishda, suvga sakrashda kenglikni mo'jal olish va chayqalishda ko'ngil aynishiga turg'unlik;

hududiy omillarni hisobga olib, jumladan, gipertermiya va gipoksiya sharoitlarida katta jismoniy yuklamalarni bajarish.

Maktablar o'quv kuni rejimida darslargacha gimnastika o'tkaziladi. O'quv mashg'ulotlari jarayonida charchash ta'siri ostida ishlash qobiliyati pasayadi. Bunda qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari orasidagi muvozanat buzilishi aniqlanadi, ta'sirchanlik ortadi. O'quv mashg'ulotlaridan diqqati chetga chiqadi. Shuning uchun o'quvchilarning kunlik rejimiga faol dam olish kiritiladi. U "Chaqiruvgacha harbiy ta'lif" o'quv rejasi bosqichi bo'yicha mashg'ulotlarda va umumta'lif darslarida jismoniy madaniyat daqiqalari tarzidagi maxsus jismoniy mashqlar kompleksini bajarishni o'z ichiga oladi. Amaliylit darajasi jihatidan sport va sport-amaliy musobaqalar farqlanadi, ularning mazmuniga tanlangan kasb uchun xos xususiy jismoniy mashqlar kiradi.

Jismoniy tarbiyaning mehnat faoliyati amaliyoti bilan tarkibiy bog'liqlik tamoyili KAJTda aniq yuzaga chiqadi. KAJT jismoniy tarbiyaning turli-tumanligi sifatida o'zi bilan tanlangan kasbga maxsuslashgan jismoniy tayyorgarlikni ta'minlashning pedagogik yo'naltirilgan jarayonni ifodalaydi. O'qitish jarayoni o'zining asosida kasbiy harakat malakalari va ko'nikmalarining individual fondi, jismoniy qobiliyatlarini tarbiyalash mazmunini boyitadi, ulardan esa kasbiy layoqatlilik kelib chiqadi.

Kasbiy faoliyatning natijaviyligi, jismoniy mashqlar bilan tizimli shug'ullanish yo'li bilan kasbiy faoliyatda organizmning funksional imkoniyatlari qo'yiladigan talablarga aniqlangan munosabatda adekvat ravishda o'zlashtirilgan maxsus jismoniy tayyorgarlikka ahamiyatlidir darajada bog'liq bo'ladi.

Hozirgi vaqtida KAJT o'rta maxsus va oliy ta'lif muassasalarida jismoniy tarbiyaning majburiy bosqichlari bo'limlardan biri sifatida amalga oshirilmoqda.

Ta'lif tizimida KAJTni joriy qilish va yanada takomillashtirish zaruriyati quydagi sabab va holatlar bilan aniqlanadi:

-kasbiy mahoratni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan vaqt, u ko'p jihatdan organizmning funksional imkoniyatlari darajasiga va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish darajasiga, ular tomonidan o'zlashtirilgan harakat malakalari va ko'nikmalarining turli-tumanligi va takomillash-tirilganligiga bog'liq bo'ladi.

Ayrim kasblar kasbiy faoliyat jarayonida jismoniy qibiliyatlarini oxirigacha safarbar qilishni talab qiladi (faoliyatning ekstremal sharoitlari bilan murakkab bo'lgan kasblar- professional harbiy xizmatchilar, tergov organlarining operativ xodimlari va boshqalar). Aniq faoliyat turi talablarining xususiyatini qismlarga ajratish uchun, jumladan, jismoniy tayyorgarlikni, jiddiy ravishda professiogrammani ilmiy ishlab chiqish kerak, u ushbu kasbiy faoliyatning shakllari va mazmunini o'rganish asosida tuziladi.

Kasb-hunar maktabi o'quvchilarining harakat tayyorgarligi natijalarini tahlil qilishda ularning jismoniy tayyorgarligini past darajada ekanligi aniqlandi, bu kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik bo'yicha dastur materialini va oldinda turgan Qurolli Kuchlar saflarida xizmat qilishni muvaffaqiyatlil o'zlashtirishga ta'sir qiladi. Kasb-hunar maktabi o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini baholash bo'yicha tanlab olingan testlar o'rta maxsus o'quv muassasalarini uchun jismoniy tarbiya bo'yicha davlat standartlaridan va salomatlik testlaridan olingan[4,5].

Jismoniy tayyorgarlik testlari to'plamiga 100 m ga yugurish, 3000 m ga kross, 4x10 m ga mokisimon yugurish, turgan joyidan uzunlikka sakrash, yotgan holatda qo'llarni bukish va yozish, granata uloqtirish va turnikda tortinishlar kiritildi. Pedagogik testlash davomida olingan natijalar matematik statistika metodi bilan qayta ishlandi va 1-jadvalda berildi.

Dastlabki ko'rsatkichlar tahlili ko'rsatdiki, birinchi kurs o'quvchilari 100 m masofani o'rtacha  $14,8 \pm 1,1$  sek. da yugurib o'dilar, ikkinchi kursda ko'rsatkichlar birinchi kursdagilarga nisbatan o'sish tendensiyasida bo'lib, 0,3 sek.ga tezroq (2,2 %)(t=3), uchinchi kursga borib natija sezilarsiz (0,8 %)(t=2) yaxshilandi.

O'quvchilarning kasb – hunar maktabiga kirgandan uni tugatguncha bo'lgan davrdagi tezlik imkoniyatlari ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, ya'ni qisqa masofaga yugurish natijasi

uchinchi kursdan boshlab, 3,7% dan 6,3 % gacha variatsiya koeffitsiyentida 2,86 % ga ishonchsiz o'sish tendensiyasiga ega bo'ladi.

Chidamlilik harakat sifatini baholashda aniqlandiki, bunda birinchi kursda 3000 m ga yugurishning o'rtacha natijasi  $14:06,0 \pm 0,9$  daq.ni tashkil qildi, ikkinchi kursda 4,7 % ( $t=4,2$ ) ishonchsiz o'sdi, uchinchi kursda esa  $13:07,0 \pm 1,0$  daq.(5,2 %)( $t=2,3$ ) ga yaxshilandi.

Tezkorlik jismoniy sifatini baholash uchun berilgan  $4 \times 10$  m ga mokisimon yugurish natijalari tahlili ko'rsatdiki, 1 kurch o'quvchilarida natija  $9,5 \pm 0,6$  sek. ga mos keldi, ikkinchi kursda ishonchsiz  $9,4 \pm 0,7$  sek. yaxshilandi va natija 2,3 % ga ishonchsiz o'sdi.

Turgan joyidan uzunlikka sakrash ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadigan kasb – hunar maktabi o'quvchilarining tezlik-kuch imkoniyatlarini baholash paytida birinchi kurslar  $1,81 \pm 0,18$  m natijaga ega bo'ldilar, ikkinchi kursda sezilarsiz  $1,87 \pm 0,23$  m o'sish tendensiyasida bo'lib, 3 kursda u oshib borib 4,8 % ( $t=2$ ) ga yetdi, variatsiya koeffitsiyenti 8,6 % dan 19,9 % gacha bo'ldi.

Yotgan holatda qo'llarni bukish va yozish testida 1 kurs o'quvchilarining natijasi  $24,0 \pm 2,6$  martani tashkil qildi, 2 kursda natija o'sib borib, 4,28 % ga teng bo'ldi va kasb – hunar maktabini bitirishda natijaning o'zgarmaganligi kuzatildi.

1-jadval

**Kasb – hunar maktablari o'quvchilarining harakat tayyorligi ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkichlar	1-kurs			2-kurs			3-kurs		
	$\bar{X}$	$\sigma$	V	$\bar{X}$	$\sigma$	V	$\bar{X}$	$\sigma$	V
100 m. ga yugurish, sek.	14,8	1,1	7,43	14,5	0,9	6,2	14,3	1,1	7,69
Turgan joydan uzunlikka sakrash, m	1,81	18,2	6,18	1,87	23,9	12,7	1,92	23,2	12,08
Turnikda tortilish, marta	14,2	0,75	5,28	11,9	0,50	4,20	12,0	0,52	4,33
3000 m. ga kross, daq.	14:06,0	0,9	6,16	14:04,0	0,8	5,55	13:07,0	1,0	5,83
Granata uloqtirish, m	34,	3,6	10,58	36	3,5	9,72	39	3,4	8,71
Yotgan holatda qo'llarni bukish va yozish, marta	24	2,6	9,0	28	4,7	16,78	28	4,3	15,35
4x10 m. ga mokisimon yugurish, sek.	9,5	0,6	6,31	9,4	0,7	7,44	9,2	0,7	7,6

Kasb – hunar maktabi o'quvchilari uchun maxsus topshiriqning asosini granata uloqtirish tashkil qiladi va Qurolli Kuchlarning barcha dastur-meyoriy hujjalardida bor. Shuning uchun ularning meyoriy ko'rsatkichlarini topshirishga tayyorligini baholashga olib keladigan ushbu harakat sifatiga alohida e'tibor beriladi.

### XULOSA

Tadqiqotlar ko'rsatdiki, Qurolli Kuchlarda xizmatdan keyin gumanitar oliv ta'lim muassasalarining chaqiriqqacha harbiy ta'lim fakultetiga kirish xohishini bildirgan kasb – hunar maktabi bitiruvchilarining harakat sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish uchun harakat qobiliyatlarini progressiv o'sib borish yo'nalishi bilan izchilligini aniqlash zarur bo'ladi.

Farg'ona viloyatidagi kasb – hunar maktablarida o'qiyotgan o'smirlarning antropometrik ko'rsatkichlari tahlili bosqichlar bo'yicha o'qish jarayonida barcha o'rganilayotgan parametrlar bo'yicha ko'rsatkichlarning ishonchsz o'sishini ( $r<0,001$ ) ko'rsatdi, bu esa ta'liming kasb – hunar maktablari tizimidagi o'quvchi o'smirlar jismoniy tarbiyasining an'anaviy tizimida kamchiliklar borligiga asos bo'ladi.

Aniqlangan ko'rsatkichlarni o'quvchilarning KAJT bo'yicha hozirgi dasturining meyorlari bilan qiyosiy tahlili o'quvchi yoshlarning umumiylari va maxsus jismoniy tayyorgarligiga yo'naltirilgan vositalar hajmini oshirish zaruriyati borligiga asos bo'la oladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jabborov Q.Q. Kollej o'quvchilari jismoniy tarbiyasining pedagogik texnologiyasi monitoringi. Avtoref.dis. kand. ped.nauk. T., 2008. – 20 s.
2. Кдырова М.А. Повышение уровня профессионально-прикладной физической подготовленности учащихся колледжа. Автореф.дис. канд. пед.наук. Ташкент. 2010 - 27 с.
3. Меньшиков В.М. Дидактические основы профессионально- прикладной физической культуры учащейся молодёжи: Автореф на соискание ученой степени доктора педагогических наук. Челябинск. 2001 – 48 с.
4. Хамрокулов Р.А., Ханкельдиев Ш.Х. Оценка готовности сельской учащейся молодежи к службе в Армии. // Научный журнал ТГПИ. Ташкент. 2004.- С.88-89.
5. Xankeldiyev Sh.X., Xasanov A.T. Pedagogika kolleji o'quvchilarining jismoniy statusini rivojlantirishning innovatsion texnologiyasi. // Pedagogika. Ilmiy jurnal. 6-son. Toshkent. 2015 y. 125-130-betlar.